

**HOZIRGI ZAMON TIBBIYOTIDA YATROGENYA VA EVTANAZIYA
MUAMMOLARI SHIFOXONA ICHI INFEKSIYASI**

*Samarqand davlat tibbiyot univertiteti
pediatriya fakultetining 1kurs talabasi*

Rajapova. Muqaddas

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada yatrogenya va evtanaziya muammolarini tahlil qilamiz. Yatrogenya termini yunon tilidan olingan bo'lib, iatros-shifokor, genes- keltirib chiqaruvchi ya'ni u shifokor tomonidan keltirib chiqarilgan kasallik degan ma'noni anglatadi. Evtanaziya (yoki evtonaziya) yunoncha en- yaxshi, tanatos o'lim degan ma'noni anglatadi. Evtanaziya bu - tuzalmas kasallikga chalingan, chidab bo'lmas og'riqni boshidan o'tkazyotgan inson hayotini to'xtatish yoki qisqartirish. Maqolada shifokor bemorni davolayotganda bemor hayotini o'zini ham ko'proq qadirlash kerakligi haqida to'xtalamiz

Kalit so'zlar :Yatrogenya, evtanaziya, shifoxona ichi infeksiyasi.

Yatrogenya

Yatrogenya — bu shifokorning noto'g'ri faoliyati va muloqoti asosida rivojlanib, natijada organizm funksiyalari buzilib, odatiy faoliyatni cheklanishi, nogironlik yoki o'limga olib keluvchi profilaktik, diagnostik, davolash aralashuvi va muolajalarining noxush asoratlari. Yatrogenya terminini birinchi marta nemis psixiatri Osvald Bumke tomonidan kiritilgan. U 1925–yil o'zining “Shifokor ruhiy buzilishlar sababi” kitobida shifokor xatolari to'g'risida yozib o'tadi.

Yatrogenya sabablari.

Yatrogenya asosida hulq-atvor me'yorlarining buzilishi, bilim va malakalarning yetishmasligi va sovuqqonlik yotadi. Bunda asosiy ro'lni, shubhasiz shifokorlik etikasini buzilishi o'ynaydi. Shuning uchun deontologiya va yatrogenya muammolari o'zaro bog'liqdir.



Yatrogenya sabablarini ko'lamini keng. Bugungi kunda yatrogenya patologiyasi e'tibor berilmaydigan yoki sezmaslik mumkin bo'lmagan jiddiy-ijtimoiy muammoga aylanadi. Shuni qayd etish kerakki yatrogenyaning o'sib borishi, shifokorning bemorga salbiy psixologik va psixik ta'sirga ega.

Yatrogen patologiyalarining turlari

Psihogen

Somatik

Dori

Infeksion

Aralash

Psixogen yatrogenya

Psixogen yatrogenya — bu salbiy psixogen omillar ta'sirida rivojlanuvchi kasallik. Psixogen yatrogenya nevroz, psixoz, nevrasteniya, isteriya, fobiya, depressiya, qo'rquv va ipoxondrik buzilishlar shaklida namoyon bo'ladi.

Dori yatrogenyasi — bu bemorda shifokor buyurgan dori moddalarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadigan buzilishdir.

Somatik yatrogenya — bu turli xil tibbiy muolajalar (jarrohlik operatsiyalari, anesteziologiya yordamlar, reanimatsion yordamlar, davolash-dagnostik muolajalar, profilaktik muolajalar) natijasida kelib chiquvchi kasalliklar.

Infeksion yatrogenya — bu bemorda tibbiyot xodimlarining noto'g'ri harakatlari tufayli chiquvchi infeksiya.

Infeksion yatrogenyaning sababi diagnostik, tashkiliy, davolash, profilaktik tadbirlarda aseptika qonunlariga rioya qilmaslik, shifokorlar bemorlarda yatrogenya kelib chiqmasligi uchun har bir bemor bilan alohida muloqot qilish, kasallikka tashxis qo'yishdan oldin bemorni izchillik bilan tekshirishi kerak.

Evtanaziya

Evtanaziya-(yunoncha en-yaxshi, tanata "o'lim") tuzalmas kasallikka chalingan, chidab bo'lmaz azoblarni boshidan o'tkaziyotgan inson hayotini to'xtatish yoki qisqartirish, tibbiy ko'rsatma bo'lmaganda og'riqsiz yoki kam og'riqli



shakldagi azoblarni to'xtatish iltimosni bajarish amaliyoti. Evtanaziya 2 turga bo'linadi:

1. Passiv- evtanaziya be'mor hayotini ta'minlab turgan davoni tibbiyot xodimlari tomonidan hasddan tuzatish.
2. Aktiv- evtanaziya o'layotgan bemorga tez va og'riqsiz o'linga olib keluvchi preparatlarni yuborish yoki boshqa amallarni bajarish.

Evtanaziya bemor hohishiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

1. Ixtiyoriy evtanaziya-bemor iltimosi yoki oldindan berilgan roziligi bilan o'tkaziladi.
2. Noixtiyoriy evtanaziya-bemor rozilgisiz odatda hushsiz yotgan holatida amalga oshiriladi. U nokompitent bemor bilan qarindoshlari yoki javobgar shaxs tomonidan berilgan rozilik bilan amalga oshiriladi.

Rossiyada aktiv va passiv evtanaziya taqiqlanadi. U jinoyat hisoblanadi va qasddan sodir etilgan jinoyat kabi tasniflanadi. O'zbekistonda evtanaziyaning barcha turlari taqiqlanadi. AQSh ning ayrim davlatlarida evtanaziya ruxsat etilgan.

Shifoxona ichi infeksiyasi

Shifoxona ichi infeksiyasi - bu bemorning shifoxonada bo'lgan paytida ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam olgan vaqtida yoki tibbiy xodimlarning ishi faoliyatida kelib chiqqan va klinik aniqlangan barcha yuqumli kasalliklar. Asosiy infeksiya manbai bo'lib bemorlar va tibbiy xodimlar, qo'shimcha infeksiya manbai bo'lib esa bemorga qarovchi kishilar va xabar oluvchi shaxslar xizmat qiladi.

Shifoxona ichi infeksiyalar

OITS; verusli gipatit-B, virusli gipatit-C, salmonellez, ich terlama, paratif, ichburug', shifoxonada yuqtirilgan boshqa yuqumli kasalliklar Shifoxona ichi infeksiyasi yuqmasligi uchun shifokorlar aseptika, antiseptika qonunlariga qat'iy rioya qilish kerak bo'ladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda yatrogeniya kelib chiqmasligi uchun shifokor oliy toifali bo'lishi, diagnostika qo'yishdan oldin bemorni to'lliq ko'rikdan o'tkazish kerak bo'ladi



Evtanaziya - bunday olib qaraganda bu katta gunoh va jinoyat hisoblanadi. Iloji boricha bu usuldan uzoqlashish va og'ir kasalliklarni davolash usullarini ishlab chiqishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1). Tibbiyot kasbiga kirish B.T.Xolmatova, M.Sh.Karimov, A.O.Oxunov, M.Sh.Ergashev, M.X.Mirazimova, D.A.Parpiyeva, S.S.Atakov, E.A.Yakubov.
- 2). Tibbiyot kasbiga kirish- M.Y.Axmedov, D.T.Rabbimova, U.X.Xayitov.
- 3). Tibbiyot kasbiga kirish- B.T.Xolmatova, M.Sh.Karimov, O.A.Oxunov